

SUV RESURLARINI BOSHQARISH BO'YICHA XALQARO DAVRA SUHBATI

2023-yil 22-may kuni AQSh elchixonasi tomonidan suv resurslarini boshqarish masalalariga bag'ishlangan davra suhbati bo'lib o'tdi va u O'zbekiston




davlat jahon tillari universitetining 60 ga yaqin professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrantlarini birlashtirgan muhim voqeaga aylandi. Ushbu tadbir ishtirokchilarga Amerikaning Tomchilatib sug'orish, Deep root Irrigation, Dragon Line mobil

sug'orish, Irrrometer Technologies, Lindsay Inc, Valley kabi yetakchi kompaniyalari tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalar va usullar bilan tanishish uchun noyob imkoniyat yaratdi.

Tadbirda suv ta'minoti va suv xo'jaligining turli jihatlarini atroflicha yoritildi. Kompaniyalar vakillari o'zlarining ilg'or sug'orish yechimlari, jumladan, tomchilatib sug'orish usullari, chuqur ildizdan sug'orish, shuningdek, markazlashtirilgan sug'orish texnologiyalari va boshqa innovatsiyalari bilan o'rtoqlashdi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarni berish va suv resurslarining o'ziga xos jihatlarini muhokama qilish imkoniga ega bo'ldilar, bu esa tajriba va bilim almashish imkonini berdi.

Seminarning muhim jihatlaridan biri AQShning turli shtatlarida suvni tejash usullari va texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajriba almashish bo'ldi. Ishtirokchilar Amerika qit'asi mintaqalari suv



resurslaridan samarali foydalanish va suv sarfini kamaytirish uchun turli sug'orish usullaridan qanday muvaffaqiyatli foydalanayotgani bilan tanishdilar.

Tadbirni yakunlagan onlayn uchrashuv ishtirokchilar uchun o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olish, suv resurslarini boshqarish bo'yicha o'z



qo'llashni yaxshiroq tushunish imkonini berdi.

fikr va g'oyalari bilan o'rtoqlashish uchun ideal platforma bo'ldi. Birgalikda muhokama qilish va tajriba almashish ishtirokchilarga suv resurslarini boshqarishning murakkabliklari va istiqbollarini, bu boradagi innovatsion usullarni